naga nisbatan yoshroq bo‘lsa, unda□ □ □ □ [shiomoni] murojaatidan keyin –□ –nim, *ya’ni –jon* affiksi albatta qo‘shilishi lozim hisoblanib, □ □ □ □ shiomonim tarzida gapirishni taqozo etadi.

Agar kelin farzandlik bo‘lsa, qaynanasi haqida farzandining ismini aytib, keyin *...ning buvasi* yoki *...ning buvisi* deb so‘zlaydi.

Umuman, -□ va -jon affiksli murojaat birliklari koreys va o‘zbek muomala madaniyatining eng go‘zal va nozik qirralarini ko‘rsatuvchi milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Koreys oilasida aka va opalarni ismi bilan chaqirish qat’iyan man qilingan. Kezi kelganda, koreys diskursining o‘ziga xos gender tafovutlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreys ayollarining nutqida □ □ [oppa] “aka”, □ □ [onni] “opa”, koreys erkaklarining nutqida□ [hyong] “aka”, □ □ [nuna] “opa” singari murojaat shakllari farqlanadi. □ □ [onni] “opa” ko‘rinishidagi murojaat shakllarini kafe va restoranlarda ham uchratish mumkin.

Oilada buvi ota tomonidan va ona tomondan ekanligiga qarab, turlicha nomlanadi. Ota tomondan buvi – □ □ □ [halmoni] deb murojaat qilinsa, ona tomondan buvi – □ □ □ □ [wihalmoni] deb murojaat qilinadi. O‘zbek tilida esa buvilarga *momo, buvi, katta oyi* deb murojaat etiladi. Koreys nutqida ota yoki ona tomondan buvilarga murojaat qilinuvchi birliklar mavjud bo‘lgani uchun ham tarjima jarayonida *buvi* kim tomondan ekanligi tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun alohida urg‘u berib tarjima qilinadi.

Shu bilan bir qatorda, □ □ □ halmoni so‘zini qarindosh bo‘lmagan, lekin yoshi ulug‘ kimsalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Buvilar nabiralariga o‘zlarini □ □ [halmi] ya’ni, buving deb aytadilar. Masalan: □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ . ***Buving*** *senga shirinlik olib keldi.*

Mazkur jumlada *“buving”* so‘zi □ □ □ [halmoni] deb emas, balki □ □ [halmi] tarzida berilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qarindoshlik terminlari murojaat birligi bo‘lib keladigan eng faol so‘zlardir. Nutqda ular so‘zlovchi tomonidan tinglovchining yoshi, jinsi, qarindoshlik belgilari asosida tanlanadi. Koreys oilasida ham ayollarga, xuddi o‘zbek tili kabi, uzoq tarixga ega bo‘lgan milliy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan murojaat shakllarini kuzatish mumkin. Har ikkala tilda ham ba’zan notanish kishilarga nisbatan ham qarindoshlikni ifodalovchi so‘zlar murojaatda qo‘llaniladi. Bunda, asosan, tinglovchining yoshi va jinsi inobatga olinadi. Koreys diskursining gender tafovutlari qarindoshlik terminlari bilan ifodalangan murojaat birliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida koreys tilida bir so‘z bilan berilgan murojaat birliklari o‘zbek tiliga tarjima qilinish jarayonida ba’zida ikki so‘z bilan, ba’zida esa uchta so‘z bilan ham berilish holatlari kuzatiladi. Bu holat har bir tilning o‘z xususiyatidan kelib chiqgan holda yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ahmedova N.Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik konnotativ tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi diss., Toshkent, 2008.

(2). Begmatov E. Nomlar va odamlar. Toshkent, “Fan”, 1996.

(3). Ким Г. О категории обращения в речевом этикете в корейском языке. 2004.

(4). Usmonova Sh. Koreys va turkiy tillarda undalmalar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Toshkent, “Universitet”, 2004.

(5). Usmanova Sh. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami, III, Toshkent, 2012.

(6). □ □ □ . □ □ □ □ □ □ □ □ . □ □ □ □ □ . 2005.

Mardonova Sitora Mardonovna (SamDCHTI, PhD)

QADIMGI INGLIZ TILIDA ISHLATILGAN “SĪÞIAN, SWENGAN, WEORPAN” FE’LLARI SEMANTIK TARAQQIYOTI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe’llarning semantik rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy maqsad qadimgi ingliz tili davrida keng qo‘llanilgan fe’llarning lug‘aviy ma’nosi va funksional o‘zgarishlarini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tarixiy-lingvistik yondashuv asosida qadimgi ingliz tilidagi matnlar, masalan, “Beovulf” asarida ishlatilgan misollar va boshqa yozma manbalar tahlil qilinadi. Ishning nazariy qismi semantik o‘zgarish turlarini, xususan, ma’no torayishi (narrowwing), ma’no kengayishi (broadening), metaforik va metonimik o‘zgarishlarni tushuntiradi. Amaliy qismda esa qadimgi inglizcha fe’llarning bugungi ingliz tilida qanday rivojlanganligi, ayrim hollarda esa yo‘qolib ketganligi ko‘rsatiladi. Misol sifatida “sīþian, swengan, weorpan” kabi asosiy fe’llar tahlil qilinadi. Tadqi-*

qot qadimgi ingliz tili va uning zamonaviy ingliz tiliga ta'siri haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishni xohlovchi filologlar, lingvistlar va til tarixchilari uchun foydalidir.

Kalit so'zlar: *semantika, fe'l, harakat, ma'no, guruh, turkum, neytral, o'timli, o'timsiz, prefix, suffiks.*

Мардонова Ситора Мардоновна (СамГИЯ, PhD)

СЕМАНТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ГЛАГОЛОВ «SĪÞIAN, SWENGAN, WEORPAN», УПОТРЕБЛЯЕМЫХ В ДРЕВНЕАНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *Данное исследование посвящено изучению семантического развития глаголов, употребляемых в древнеанглийском языке. Основная цель – определить лексическое значение и функциональные изменения глаголов, широко употреблявшихся в древнеанглийский период. В ходе исследования на основе историко-лингвистического подхода анализируются древнеанглийские тексты, такие, как примеры, использованные в «Беовульфе», и другие письменные источники. Теоретическая часть работы объясняет виды семантических изменений, в частности, сужение, расширение, метафорические и метонимические изменения. В практической части показано, как древнеанглийские глаголы развивались в современном английском языке, а в некоторых случаях исчезли. В качестве примера анализируются такие базовые глаголы, как «sīþian, swengan, weorpan». Исследование будет полезно филологам, лингвистам и историкам языка, которые хотят глубже понять древнеанглийский язык и его влияние на современный английский язык.*

Ключевые слова: *семантика, глагол, действие, значение, группа, категория, нейтральный, переходный, непереходный, приставка, суффикс.*

Mardonova Sitora Mardonovna (SamSIFL, PhD)

SEMANTIC DEVELOPMENT OF THE VERBS "SĪÞIAN, SWENGAN, WEORPAN" USED IN OLD ENGLISH

Annotation. *This study is devoted to the study of the semantic development of verbs used in Old English. The main goal is to determine the lexical meaning and functional changes of verbs commonly used in the Old English period. The studios uses a historical-linguistic approach to the analysis of the Old English text, such as the examples used in Beowulf, and other written sources. The theoretical part of the work explains the types of semantic changes, in particular, narrowing, expansion, metaphorical and metonymic changes. The practical part shows how Old English verbs developed in modern English and in some cases disappeared. As an example, such basic verbs as "sīþian, swengan, weorpan" are analyzed. The study will be useful to philologists, linguists and language historians who want to gain a deeper understanding of Old English and its influence on modern English.*

Key words: *semantics, verb, action, meaning, group, category, neutral, transitive, intransitive, prefix, suffix.*

Kirish. Qadimgi ingliz tili (Old English, milodiy 5–11-asrlar) Germaniya qabilalari tomonidan Britaniya orollariga olib kelingan va hozirgi zamonaviy ingliz tilining asosi bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda ishlatilgan fe'llar, ularning shakllari va semantik ma'nolari, tilning semantik evolutsiyasi jarayonida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe'llarning semantik taraqqiyoti, ularning zamonaviy ingliz tiliga o'tishi davomida yuz bergan o'zgarishlari tahlil qilinadi.

1. Qadimgi ingliz tili fe'llarining asosiy xususiyatlari. Qadimgi ingliz tilida fe'llar ancha murakkab tizimga ega bo'lgan. Ular shakllar bo'yicha turkumlangan: kuchli (strong) va kuchsiz (weak) fe'llarga bo'lingan. Zamonga ko'ra tasniflangan: hozirgi zamon va o'tmish zamon (past tense) fe'llari mavjud edi. Kelib chiqishi, asosan, germanik ildizlarga ega bo'lgan, lekin boshqa tillardan, xususan, lotin va kelt tillaridan kirib kelgan so'zlar ham uchraydi.

2. Semantik o'zgarishning turlari. Qadimgi ingliz tilida fe'llarning semantik o'zgarishlari bir necha shakllarda yuz bergan.

Ma'no kengayishi. Fe'l, dastlab, faqat bir ma'noni bildirgan bo'lsa, zamonaviy tilga o'tishda kengroq ma'noni qamrab olgan. Masalan, drīan (tortmoq, sudramoq) fe'li zamonaviy ingliz tilida to draw sifatida kengroq ma'nolarni bildiradi (chizish, tortmoq).

Ma'no torayishi. Dastlab, keng ma'noga ega bo'lgan fe'l ma'nosi zamonaviy tilga o'tishda toraygan. Masalan, lufian (sevmoq, xush ko'rmoq) zamonaviy ingliz tilidagi to love so'ziga aylangan.

Metaforik o'zgarish. Ba'zi fe'llar metaforik ma'nolarni qabul qilgan. Masalan, springan (sakramoq) zamonaviy ingliz tilidagi to spring so'zida mavsumiy o'zgarish yoki faoliyat boshlanishini ham bildiradi.

Semantik almashuv. Ba'zi qadimgi fe'llar zamonaviy ingliz tilida butunlay boshqa ma'noni qabul qilgan yoki kamdan kam ishlatiladi.

Tahlil va natijalar. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **sīþian** fe'li tez-tez qo'llanilgan fe'l bo'lib, "sayohat qilmoq, bormoq" kabi ma'nolarga ega bo'lgan. T.Fanegoning ta'kidlashicha mazkur fe'l qadimgi ingliz tilida holat fe'llari tarkibiga kiritilgan.[1] Ammo uning qarashlari yetarlicha isbotlanmagan. **Sīþian** fe'li holat fe'llari tarkibiga kiritilgani borasida yetarlicha asoslar mavjud emas. Mazkur fikrlarni misollarning tahlilida ko'rib chiqishimiz mumkin. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan mazkur fe'l keltirilgan misollarda qisman holat fe'llari bo'lganligi aniqlandi.

1. Ða ða se Hælend **siðode**, sum man him cwæþ to: "Ic wille **siðian** mid ðe and ðe folgian".

Yuqorida keltirilgan misolda **sīþian** fe'li tepalikga yo'naltirilgan harakat ma'nosini ifodalab kel-an. Mazkur misolda harakatning ketma-ketlikda sodir bo'layotgani aks ettirilgan. Ya'ni, bunda ko'rinib turibdiki, harakatning holati qisman ko'rsatilgan, inson tomonidan bajarilayotgan harakat qiya holatda bo'layotgani nazarda tutilgan.

2. Hig into helle cuce **siðodon.** Keltirilgan ikkinchi misolda biron-bir makonga tushib qolmoq ma'nosi ifodalangan, ya'ni harakat sodir bo'lganligi noma'lum va mavhum. Mazkur misolda **sīþian** fe'li "paydo bo'lmoq" ma'nosini ham ifodalab kelgan. Qadimgi ingliz tilida fe'llar tuslangan va ular ba'zi hollerda grammatik qo'shimchalar qo'shilishi natijasida ko'rinishini ham o'zgartirishgan.

3. For ðe sceal ælc flæsc forþ **siðian.** Uchinchi misolda **sīþian** fe'li "bironbir kishining qarshisiga chiqmoq" ma'nosida ishlatilgan. Ushbu misolda **sīþian** fe'li harakatning holatini anglatib kelmagan. Bundan ko'rinib turibdiki, **sīþian** fe'lini holat harakat fe'llari tarkibiga kiritish uchun yetarlicha asosga ega emasmiz.

4. Þurh ðe Frea on ðas eorþan ut **siðade.** Mazkur misolda **sīþian** fe'li "butun yer yuzini aylanib chiqmoq" ma'nosini ifodalab kelgan. Bundan ko'rinib turibdiki, qadimgi ingliz tilida **sīþian** fe'li, asosan, neytral harakat ma'nosiga ega fe'l sifatida ishlatilgan. Ushbu fe'lning lug'atdagi ma'nosidan tashqari "bormoq, aylanmoq" kabi ma'nolarga ham ega bo'lgan.

5. Hig **siðodon** ealle to Egipta lande. Ushbu misolda **sīþian** fe'li "aylanmoq" ma'nosini ifodalagan. **Sīþian** fe'liga "eft, for, forþ, fram, -ge, hām" kabi prefix va suffikslarning qo'shilishi natijasida mazkur fe'l o'z grammatik shaklini va ma'nosini qisman o'zgartirgan. Misol uchun, "ta'tilga chiqmoq, sayoxatga bormoq yoki ekspeditsiyaga chiqmoq" kabi ma'nolarni anglatgan.

O'rta ingliz tili davriga kelib, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **sīþian** fe'li **sweien** shakliga o'zgardi. O'rta ingliz tili davrida mazkur fe'l "harakatlanmoq, yurmoq, tez yurmoq" kabi ma'nolarga ega bo'lgan.

6. He wente into Wales with his wyes all, **Sweys** into Swaldye with his snell houndes. Mazkur misolda **sweien** fe'li "yurish qilmoq" ma'nosini anglatgan. Ya'ni, o'rta davr ingliz tiliga kelib, ushbu fe'l fransuz kotiblarining ta'siri natijasida o'z shaklini o'zgartirgan.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **swengan** fe'li "tebranishga sabab bo'lmoq, tebranmoq, tez harakat qilmoq" kabi ma'nolarni anglatgan. Mazkur fe'l harakatning tezligini ifodalovchi fe'l guruhiga kiritil-gan.

7. Ða eode uncer hlaford sylf in ðæt scræf ða **swengde** sio lio sona **forð** and forswealh hine. **Swengan** fe'li qadimgi ingliz tilida **forð** predlogi bilan ishlatilgan. Ya'ni, mazkur predlog hozirgi zamon ingliz tili davri **for** predlogiga to'g'ri keladi.

Keyinchalik, **swengan** fe'li **swengen** shakliga o'zgargan. Ya'ni, o'rta davr ingliz tiliga kelib, "a" harfining reduksiyaga uchrashi natiasida "e" harfiga almashgan va ushbu fe'lning shakli o'zgargan. O'rta ingliz tili davrida **swengen** fe'li "shoshilmoq" kabi ma'noga o'zgargan.

8. Thenne þe sergauntez, at þat sawe, **swengen** þeroute, And diden þe dede. And wyth peple of alle plytez þe palays þay fyllen. Ushbu misolda **swengen** fe'li "shoshilmoq" ma'nosini ifodalab kelgan. O'rta ingliz tili davrida mazkur fe'l prefikslar olmagan va grammatik shakllar qo'shilmagan. Mazkur fe'l holat fe'llari turkumiga kiritilgan. B.Tollerning ta'kidlashicha, mazkur fe'l o'timsiz fe'llar turiga tegishli bo'lgan.[2] Qadimgi ingliz tili davrida o'timli fe'llar tarkibiga **weorpan** fe'li ham kiritilgan. Qadimgi ingliz tili davrida mazkur fe'l "otmoq" ma'nosini ifodalagan va mazkur fe'l, asosan, sabab fe'li shaklida ishlatilgan.

9. Hi **wurpon** hine on ðone bat. Yuqoridagi misolda **weorpan** fe'li "uloqtirmoq" ma'nosida kelgan, ya'ni nimadir sabab bo'lib harakat yuzga kelgan. Harakatga keltiruvchi bu ega, harakatlanuvchi esa shakl hisoblangan. Aynan shu shaklning harakatlanishiga ega sababchi bo'lgan. Bunda makon hamda harakatning yo'nalishi aniq keltirilgan.

10. Se deofol **wearp** ænne stan to ðære bellan. O'ninchi misolda "shaytonning toshni qo'ng'iroqga uloqtirgani" aks ettirilgan. Ya'ni harakat nimaningdir natijasida vujudga kelayabdi va shuning uchun maz-

[1] Fanego T. Motion events in English. Folia Linguistica Historica 33, 2012, p. 29–85.

[2]Bosworth T., Joseph B., Northcote T. An Anglo-Saxon dictionary. Oxford: Oxford University Press, 1882, p. 1457.

kur fe'lni sabab fe'llar turkumiga kiritishgan. Eganing harakati shaklga o'tganligi bois ushbu fe'lni o'timli fe'llar turiga kiritsak bo'ladi. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **weorpan** fe'li o'rta ingliz tili davriga kelib **werpen** shakliga o'zgardi va "shoshilmoq" ma'nosini ifodalay boshladi. Mazkur fe'l o'rta ingliz tili davrida ham o'timlilik shaklini saqlab qolgan lekin sabab fe'llari turkumiga kiritilmagan.

11. Ich leote … a cleane mon wunien neh a cleane wummon þet ich nawhit towart ham ne **warpe** ne ne weorri, ah leote ham al iwurðen. Mazkur misolda **werpen** fe'li "shoshilmoq" ma'nosida ifodalan-gan. Bu yerda ega emas, balki shakl harakatlanayotgani aks ettirilgan, ya'ni harakat ega sabab yuzaga kelmagan. Bunda harakat makon va yo'nalishning o'rtasida bo'lib o'tgan.

12. I rede ȝe…warpes wylily awaye. Subyekt harakatni ifodalamagan balkim, shaklni harakatga keltirgan. Shunday qilib, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "weorpan" fe'li o'timli sabab fe'llar turkumiga kiritilgan va bu fe'l o'rta davr ingliz tiliga kelib, o'timli fe'llar guruhiga tegishli bo'lgan. Keltirilgan dalillarga asoslanib, qadimgi va o'rta davr ingliz tilida ishlatilgan fe'llar bugungi davrda ya'ni zamonaviy ingliz tili davrigacha ham saqlanib kelgan va ular quyidagicha ko'rinishga ega:

1-jadval

Harakat fe'llarining semantik taraqqiyoti

№	Qadimgi	O'rta	Hozirgi
1.	sīþian	sweien	to move, go, go quickly
2.	swengan	swengen	hasten
3.	weorpan	werpen	to hasten, rush

Xulosa. Materiallarning dalilicha, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe'llar bir qancha turlarga bo'lingan va ushbu turlar bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Fe'llar sabab fe'llari, holat fe'llari va harakat fe'llari kabi turkumlarga ajratilgan. Ulardan eng katta turkum harakat fe'llari turkumi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollardan qadimgi ingliz tilida fe'llar o'timli va o'timsiz kabi turlarga bo'linganligini ham ko'rishimiz mumkin. Bunda harakat subyektdan shaklga o'tganligi aks ettirilgan. Misollardagi keltirilgan harakatlarda yo'nalish fe'llarini ham kuzatish mumkin. Grammatik shakllarning fe'llarga ta'sir etganligi bois ularning ba'zilari o'rta ingliz tili davriga kelib o'zgarib ketgan, ba'zilari esa umuman shaklini yo'qotgan. Ko'p holatlarda, ma'nosi ham o'zgarib ketganligini yuqorida keltirilgan misollar bilan isbotlashga harakat qildik. Mazkur maqolada biz ko'rib chiqqan fe'llar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan ammo juda ko'p o'zgarishlarga sabab bo'lganligini kuzatishimiz mumkin.

Qadimgi ingliz tilidagi bu fe'llar vaqt o'tishi bilan semantik jihatdan ko'p qirrali rivojlangan va ba'zilari bugungi ingliz tilida iz qoldirgan. Ushbu jarayonlar so'zlarning ijtimoiy va madaniy kontekstlari, shuningdek, boshqa tillar bilan muloqoti orqali boyitilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Fanego T.K. Motion events in English. The emergence and diachrony of manner salience from Old English to Late Modern English. Folia Linguistica Historica, 2012, 250 p.

(2). Filipović L.M., Kasia M.J. Space and time in languages and cultures. Amsterdam: John Benjamins, 2012, 550 p.

(3). Goldberg A.E. Constructions at work. The nature of generalization in language. Oxford: Oxford University Press, 2006, 350 p.

(4). Huber J.P. Caused- motion verbs in the Middle English intransitive motion construction. 2013, 265 p.

(5). Bosworth T., Joseph B., Northcote T. An Anglo-Saxon dictionary. Oxford: Oxford University Press, 1882, 2450 p.

(6). Niles J.D. Compound diction and the style of Beowulf. English Studies 62(6). 1981, 483 p.

Yusupova Gulxumor (Urganch davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi tayanch doktoranti, Urganch, 220100, O'zbekiston; e-mail: yusupova.gulkhumor@mail.ru**),**
Matsabirova Durdona Maksudjon qizi (Urganch davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi)

MADANIYAT, TARJIMA VA GENDER: TIL VOSITASIDA MADANIY MEROSNI YETKAZISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya. *Maqolada madaniyat, tarjima va genderning o'zaro aloqalari o'rganiladi. Ingliz, o'zbek, nemis va rus tillaridan misollar orqali gender stereotiplari va til birliklarining tarjimada qanday o'zgarishi tahlil qilinadi. Madaniy ma'nolarni to'g'ri yetkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, tarjima, gender, til, madaniyatlararo muloqot, gender stereotiplari, jinsiy differensiatsiya, ijtimoiy rol va mavqe, madaniy meros.*